



Namangan viloyatida
kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **23,1** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,2** mingtaga kamaygan yoki **28,4** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,6** birlikni tashkil qildi.



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-dekabrida **4,6** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,3** % ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi

2020-2024- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.		2023- y.
32 305	Namangan viloyati	23 136
10 657	Namangan sh.	7 192
2 667	Chust	2 038
1 995	Pop	1 646
2 101	Uchqo'rg'on	1 646
2 042	To'raqo'rg'on	1 551
1 958	Chortoq	1 483
2 128	Namangan	1 480
2 112	Uychi	1 385
1 978	Kosonsoy	1 351
1 646	Yangiqo'rg'on	1 167
1 617	Norin	1 149
1 404	Mingbuloq	1 048

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **23 136** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4 636** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida **7 192** tani yoki jamiga nisbatan **31,1** % ni tashkil etdi.


1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Mingbuloq	12,1
Uchqo'rg'on	11,0
Chortoq	10,9
Chust	10,7
Namangan sh.	10,5
Pop	9,8
Namangan	9,6
Norin	8,6
To'raqo'rg'on	8,5
Yangiqo'rg'on	8,2
Kosonsoy	7,7
Uychi	7,5



Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- yanvar holatiga, birlikda



2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 9,6 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan 3,6 birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida 12,1 birlik, Uchqo'rg'on tumanida 11,0 birlik, Chortoq tumanida 10,9 birlik, Chust tumanida 10,7 birlik va Namangan shahrida 10,5 birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Mingbuloq tumani
– 12,1 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Namangan tumani
– 9,6 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Uychi tumani
– 7,5 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **12,1** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **11,0** birlik, Chortoq tumanida **10,9** birlik, Chust tumanida **10,7** birlik, Namangan shahrida **10,5** birlik, Pop tumanida **9,8** birlik, Namangan tumanida **9,6** birlik, Norin tumanida **8,6** birlik va To'raqo'rg'on tumanida **8,5** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Namangan shahrida

Chortoq tumani

Mingbuloq tumani

10,5

10,7

10,9

11,0

12,1

Chust tumani

Uchqo'rg'on tumani

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

236	Mingbuloq	322
267	Kosonsoy	261
344	Namangan	242
335	Norin	247
324	Pop	312
358	To'raqo'rg'on	370
353	Uychi	283
479	Uchqo'rg'on	449
397	Chortoq	377
446	Chust	331
314	Yangiqo'rg'on	231
1689	Namangan sh.	1211

2023- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri – **26,1** %, Uchqo'rg'on tumani – **9,7** %, Chortoq tumani – **8,1** %, To'raqo'rg'on tumani – **8,0** %, Chust tumani – **7,1** %, Mingbuloq tumani – **7,0** %, Pop tumani – **6,7** %, Uychi tumani – **6,1** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 1 851 ta, sanoatda 851 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 459 ta yangidan tashkil etilgan.


Shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida 1 211 ta, Uchqo'rg'on tumanida 449 ta, Chortoq tumanida 377 ta hamda To'raqo'rg'on tumanida 370 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-dekabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami **28 296** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **11 186** (yoki **39,5 %**) ta, sanoat sohasida – **7 032** (yoki **24,9 %**) ta, xizmatlar sohasida – **5 251** (yoki **18,6 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3 122** (yoki **11,0 %**) ta va qurilish sohasida – **1 705** (yoki **6,0 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2022- y. ■ 2023- y.




■ 2022- y. ■ 2023- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2023- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **72,8** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **0,4** punktga ortgan.




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **97,5** % ni, yo'lovchi aylanmasida **95,6** % ni, chakana savdoda **94,7** % ni, qishloq xo'jaligida **94,2** % ni, yuk tashishda **93,7** % ni, qurilishda **91,7** % ni, yuk aylanmasida **91,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Namangan sh.	4506,8
Namangan	900,6
Uychi	788,1
Chust	693,2
Chortoq	493,0
Kosonsoy	464,3
Pop	459,3
To'raqo'rg'on	374,2
Yangiqo'rg'on	314,4
Mingbuloq	309,7
Norin	279,8
Uchqo'rg'on	247,6

2023- yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **9 831,0** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (**4 506,8** mlrd. so'm), Namangan (**900,6** mlrd. so'm), Uychi (**788,1** mlrd. so'm), Chust (**693,2** mlrd. so'm), Chortoq (**493,0** mlrd. so'm) va Kosonsoy (**464,3** mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Uchqo'rg'on tumanida (**247,6** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

2023- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 47,2 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chortoq tumani (100,0 %), Yangiqo'rg'on tumani (100,0 %), Norin tumani (93,5 %), Namangan tumani (77,5 %), Pop tumani (73,4 %), Uychi tumani (65,5 %) va Namangan shahri (58,1 %) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Namangan sh.	1816,9	86,4
Uychi	703,1	91,2
Chortoq	553,9	100,0
Kosonsoy	518,6	89,9
Namangan	501,2	100,0
Uchqo'rg'on	475,6	97,8
Chust	417,3	100,0
To'raqo'rg'on	416,3	96,3
Pop	412,1	70,3
Norin	369,4	100,0
Yangiqo'rg'on	359,7	98,3
Mingbuloq	301,0	100,0

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6 845,1** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **91,7** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **110,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (**1 816,9** mlrd. so'm), Uychi (**703,1** mlrd. so'm), Chortoq (**553,9** mlrd. so'm), Kosonsoy (**518,6** mlrd. so'm), Namangan (**501,2** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**475,6** mlrd. so'm) hamda Chust (**417,3** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **13 831,2** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **66,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **133,9 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Namangan shahri (**4 112,5** mlrd. so'm), Pop (**1 559,2** mlrd. so'm), Chust (**1 436,1** mlrd. so'm), Namangan (**1 360,1** mlrd. so'm), Chortoq (**1 112,2** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**1 077,0** mlrd. so'm), hamda Uychi (**700,0** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2018-y. 2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **30 915,6** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **94,2** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **114,4** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Yangiyo'rg'on (5 152,1 mlrd. so'm), To'rao'rg'on (2 867,1 mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (2 790,6 mlrd. so'm), Chust (2 777,5 mlrd. so'm), Namangan (2 556,5 mlrd. so'm), Pop (2 478,5 mlrd. so'm) hamda Uychi (2 401,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yangiyo'rg'on	5152,1	99,3
To'rao'rg'on	2867,1	98,8
Uchqo'rg'on	2790,6	95,5
Chust	2777,5	99,6
Namangan	2556,5	93,0
Pop	2478,5	86,7
Uychi	2401,5	96,0
Chortoq	2332,7	98,0
Norin	2119,2	94,1
Mingbuloq	1965,1	88,4
Namangan sh.	1753,2	76,3
Kosonsoy	1721,8	97,9


hajmi, mlrd. so'mda ———— ↑
ulushi, % da ———— ↑

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023- yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **19 564,8** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **94,7 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **108,0 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Namangan sh.	92,4	6907,6
Chust	93,5	1396,8
To'raqo'rg'on	92,3	1369,3
Pop	93,8	1363,5
Norin	96,4	1361,9
Yangiqo'rg'on	98,0	1290,4
Kosonsoy	99,2	1249,9
Uychi	99,2	1166,0
Uchqo'rg'on	97,4	1035,2
Chortoq	97,5	1025,1
Namangan	95,5	836,1
Mingbuloq	95,3	563,0

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (**6 907,6** mlrd. so'm), Chust (**1 396,8** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**1 369,3** mlrd. so'm), Pop (**1 363,5** mlrd. so'm), Norin (**1361,9** mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (**1 290,4** mlrd. so'm) va Kosonsoy (**1 249,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018 va 2023- yillarning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Namangan sh.	3 077,6
Chust	1 010,8
Uychi	950,6
To'raqo'rg'on	843,4
Pop	829,1
Kosonsoy	820,9
Namangan	786,0
Yangiqo'rg'on	784,3
Chortoq	776,7
Uchqo'rg'on	695,0
Norin	657,6
Mingbuloq	597,2

2023- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **11 829,1** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,4 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **111,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (**3 077,6** mlrd. so'm), Chust (**1 010,8** mlrd. so'm), Uychi (**950,6** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**843,4** mlrd. so'm), Pop (**829,1** mlrd. so'm), Kosonsoy (**820,9** mlrd. so'm) va Namangan (**786,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari (yanvar-dekabr oylarida)

4 916,6	Savdo xizmatlari	41,6
3032,9	Transport xizmatlari	25,6
1150,8	Shaxsiy xizmatlar	9,7
491,4	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	4,2
459,2	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,9
438,5	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,7
416,6	Boshqa xizmatlar	3,5
287,3	Ijara xizmatlari	2,4
239,1	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,0
151,0	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,3
116,1	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,0
66,8	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,6
62,8	Moliyaviy xizmatlar	0,5

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **41,6** % (**4 916,6** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **25,6** % (**3 032,9** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda – **9,7** % (**1 150,8** mlrd. so'm) hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda **4,2** % (**491,4** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,5** % (**62,8** mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **229,1** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **41,0** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Norin	12,3	100,0
Chortoq	1,5	100,0
Yangiqo'rg'on	6,4	100,0
Pop	15,8	97,8
Mingbuloq	1,8	92,1
Uychi	22,3	57,2
Namangan	13,2	52,8
Namangan sh.	86,2	50,2
Kosonsoy	23,6	34,3
To'raqo'rg'on	36,7	29,0
Chust	8,3	22,4
Uchqo'rg'on	1,0	3,9

hajmi, mln. AQSH dollar


ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Norin, Chortoq, Yangiqo'rg'on tumanlarida – **100,0** %, Pop tumanida – **97,8** %, Mingbuloq tumanida – **92,1** %, Uychi tumanida – **57,2** %, Namangan shahrida – **52,8** %, Namangan tumanida – **50,2** % ni tashkil qildi.

Eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida – **3,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **576,5** million AQSH dollarini yoki jami importning **70,2** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlarida – **100,0** %, Norin tumanida – **98,8** %, Pop tumanida – **96,1** %, Mingbuloq tumanida – **92,6** %, Uychi tumanida – **91,7** % va Namangan tumanida – **86,7** % ni tashkil etdi.


Yangiqo'rg'on	100,0
Chortoq	100,0
Norin	98,8
Pop	96,1
Mingbuloq	92,6
Uychi	91,7
Namangan	86,7
Namangan sh.	66,9
Kosonsoy	64,1
Chust	53,9
Uchqo'rg'on	51,8
To'raqo'rg'on	11,6

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2023- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,7 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,5 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,0 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi
tashishda**

2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,5 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,9 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi
aylanmasida**

2023- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,6 %** ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,7 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2023- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1 031 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 366 (35,5 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 595 (57,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 70 (6,8 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 42,1 % (434 ta), xizmatlar sohasida – 27,0 % (278 ta), sanoatda – 17,8 % (184 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,7 % (69 ta), qurilishda – 6,4 % (66 ta) ni tashkil etdi.

2023- yil IV chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

50	Mingbuloq	4,9
64	Kosonsoy	6,2
65	Namangan	6,3
51	Norin	4,9
80	Pop	7,8
68	To'raqo'rg'on	6,6
62	Uychi	6,0
53	Uchqo'rg'on	5,1
69	Chortoq	6,7
63	Chust	6,1
50	Yangiqo'rg'on	4,9
356	Namangan sh.	34,5


Soni, ta

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (356 ta), Pop (80 ta), Chortoq (69), To'raqo'rg'on (69 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilning IV choragida **105** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa **366** taga yetgan yoki 2018- yilning IV choragiga nisbatan **261** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018- yilda **400** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabrida **595** ta yoki **195** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018- yilda **117** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **70** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **47** taga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning IV choragida **325** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragiga kelib esa, **428** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **105** taga oshgan

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2018- yilning IV choragida **192** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragida **467** ta yoki **275** taga oshgan

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2018- yilning IV choragida **25** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning IV choragiga kelib, bu ko'rsatkich **53** tani tashkil etib, **28** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillarning IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning IV choragida **16,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa, **35,5** % ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **18,6** % oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **64,3** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning IV choragida **57,7** % yoki **6,6** % ga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **18,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **6,8** % ga yetgan yoki **12,0** % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar IV choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning **IV** choragida **60,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa, **45,1** % ga yetgan yoki 2018- yilning **IV** choragida nisbatan **14,9** % kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilning **IV** choragida **35,4** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabrda **49,3** % yoki **13,9** % oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa, 2018- yilning **IV** choragida **4,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning **IV** choragiga kelib, bu ko'rsatkich **5,6** % yoki **1,0** % birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **41,7 %** ni, sanoatda – **34,8 %** ni, savdoda – **33,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **68,2 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **62,3 %** ni, savdoda – **59,4 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **10,2 %** ni, xizmatlar sohasida – **7,6 %** ni, savdoda – **6,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **53,2** % ni, sanoatda – **50,5** % ni va qurilishda – **50,0** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **56,5** % ni, qurilishda – **50,0** % ni, savdoda – **48,9** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4,4** % ni, xizmatlar sohasida – **2,5** % ni, sanoatda – **2,2** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	41,8	49,6	8,6
Band bo'lganlar soni	20,8	73,8	5,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	41,6	53,4	5,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	36,4	58,5	5,1
Raqobat muhiti	43,6	53,1	3,3

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	44,0	52,5	3,5
Band bo'lganlar soni	25,9	71,7	2,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	41,4	55,4	3,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	36,9	59,5	3,6
Raqobat muhiti	45,0	53,0	2,0


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli